

“ТАСДИҚЛАЙМАН”

“Сирдарё сув қурилиш инвест”

ДМ бош мухандиси

Харид комиссияси раиси



Жалилов С.Жалилов

“Мирзаобод туманинаги “Д-3-20а” ирригация тизими каналини реконструкция қилиш” объектининг атроф мухитга таъсир баёноти лойихасини ишлаб чиқиш бўйича ўтказилган энг яхши таклифларни танлаш(тендер) йиғилиши

БАЁННОМАСИ № 2/9

Гулистон шахар

25 шард 2022 йил

Танлов савдолари мажлисида “Сирдарё сув қурилиш инвест” ДУКнинг 2021 йил 10 марта 16-П-сонли бўйруғи асосида тайинланган комиссия аъзолари катнашдилар:

1.	С.Жалилов	-	“Сирдарё сув қурилиш инвест” давлат муассасаси бош мухандиси, комиссия раиси.
----	-----------	---	---

Комиссия аъзолари:

2.	А.Маматов	-	Молиялаштириш ва хўжалик-шартнома муносабатлари бўлими бошлиғи.
3.	А.Кенжаев	-	Бош хисобчи.
4.	А.Умматов	-	Лойихаларни бошқариш ва қурилшни техник кузатиш бўлими бошлиғи.
5.	А.Босимов	-	Бирламчи рухсат берувчи, лойиха ва танлов хужжатларини тайёрлаш бўлими бош мутахассиси

Комиссия котиби:

6.	У.Ражабов	-	Танлов савдоларини ташкил этиш ва хўжалик-шартнома муносабатлари бўлими бошлиғи. (овоз бериш хуқуқисиз)
----	-----------	---	---

КУНТАРТИБИ:

- “Мирзаобод туманинаги “Д-3-20а” ирригация тизими каналини реконструкция қилиш” объектининг атроф мухитга таъсир баёноти лойихасини ишлаб чиқиш бўйича ўтказилган энг яхши таклифларни танлаш тўғрисида.

Ўзбекистон Республикасининг 2021 йил 22 апрелдаги “Давлат харидлари тўғрисида” 684-сонли Қонуни хамда Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Махкамасининг 2022 йил 20 майдаги “Давлат харидларини амалга ошириш билан боғлиқ тартиб-таомилларини ташкил этиш ва ўтказиш тартиби тўғрисидаги низомини тасдиқлаш хақида”ги 276-сонли қарорига асосан баёнинг ижросини таъминлаш мақсадида энг яхши таклифлар асосида танлаш ўтказилиши тўғрисида 2022 йил 13 июль куни « etender.uzex.uz» сайтига № 22110012119948 - сонли лот билан эълон берилди.

Мазкур обьект бўйича танлов ғолиби аниқланиб харид комиссиясининг 2022 йил 20 июль кунида баённома расмийлаштирилиб, икки иш кунига электрон тизимга мухокама қилиш учун жойлаштирилди.

Харид комиссияси аъзоларида мазкур лот(лар) иштирокчилари билан аффилланганлик хусусиятига эга алоқалар мавжуд емас.

Ўзбекистон Республикасининг 2021 йил 22 апрелдаги “Давлат харидлари тўғрисида” 684-сонли Қонуни 23-моддасига кўра, иштирокчи ва унинг аффилланган шахси мазкур

лот(лар)да иштирок этмади.

Маълумотлар stat.uz саҳифаси орқали текширилди.

Ушбу ЛОТ: 119948-сонли лот рақами бўйича танлов комиссиясининг баённомаси юзасидан ҳеч қандай эътиroz ёки норозиликлар юзага келмади.

Овозга қўйиш натижасига кўра 5 та овоз билан “DAVR PROEKT” МЧЖ ғолиб чиқди.
Баҳоловчи комиссия аъзолари ўзаро фикр-мулоҳазалар билдиришиб,

ҚАРОР ҚИЛАДИ:

1. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Махкамасининг 2022 йил 20 майдаги “Давлат харидларини амалга ошириш билан боғлиқ тартиб-таомилларини ташкил этиш ва ўтказиш тартиби тўғрисидаги низомини тасдиқлаш хақида”ги 276-сонли қарори ижро учун қабул қилинсин.

2. “Мирзаобод туманидаги “Д-3-20а” ирригация тизими каналини реконструкция қилиш” обьектининг атроф-мухитга таъсир баёнати лойихасини ишлаб чиқиш бўйича ўтказилган энг яхши таклифларни танлаш орқали “DAVR PROEKT” МЧЖ томонидан таклиф этган нархи **5 659 000** (КҶС билан) сўмга танлов ғолиби деб топилсин.

3. Қарорнинг 100-моддаси бўйича икки иш кун ичida танлаш иштирокчилари томонидан танлаш ўтказиш натижалари бўйича эътиrozлар келиб тушмаганлиги учун “DAVR PROEKT” МЧЖ билан шартнома тузилсин.

4. Танлов ғолиби билан шартнома (контракт) тузиш Молиялаштириш ва хўжалик-шартнома муносабатлари бўлими бошлиғи А.Маматовга топширилсин.

Имзолар:

Комиссия аъзолари:


А.Маматов


А.Кенжаев


А.Умматов


А.Босимов


У.Ражабов

Комиссия котиби:

SHARTNOMA № 28/22
Loyihalash ishlarini bajarish uchun

Guliston shahri

25.07.2022 yil

«Sirdaryo suv qurilish invest» DM (keyingi o'rinda "Buyurtmachi" deb yuritiladi) nomidan o'zining Nizomi asosida ish olib boruvchi direktor **D.Islamov**, bir tarafdan va ikkinchi tarafdan "**DAVR PROEKT**" MChJ (keyingi o'rinda "Loyihachi-ijrochi" deb yuritiladi) nomidan o'zining nizomi, asosida ish olib boruvchi direktori **R.Xoziyev**, birlgilikda ushbu shartnomani quyidagi mazmunda tuzdilar.

I. SHARTNOMA MAZMUNI

- 1.1. "Loyihachi-ijrochi" Mirzaobod tumaniida "D-3-20a" irrigation tizimi kanalini rekonstrukция қилиш обектнинг атроф мухитта таъсир баёноти лойихасини ишлаб чиқиш" bo'yicha "Buyurtmachi" tomonidan berilgan topshiriq asosida loyiha xujjalalarini ishlab chiqishni o'z zimmasiga oladi.
- 1.2. "Buyurtmachi" ushbu bajarilgan ishlarni qabul qilishni va unga haq to'lashni o'z zimmasiga oladi.
- 1.3. Ushbu shartnoma bo'yicha bajariladigan ishlar "Buyurtmachi" tomonidan berilgan texnik topshiriqqa asosan va boshqa talablarga muvofiq amalga oshiriladi.

II. SHARTNOMA BAHOSI

- 2.1. Shartnomaning umumiyligi 5 659 000 (besh million olti yuz ellik toqqiz ming) so'mni QQS bilan tashkil qiladi.
- 2.2. "Buyurtmachi", "Loyihachi-ijrochi" tashkilotga shartnomani imzolanganidan so'ng 10 bank kuni mobaynida ushbu shartnoma qiymatidan 30% (1 697 700) so'm QQS bilan miqdorida bo'nak (avans) to'laydi.
- 2.3. Ish qiymatining qolgan 70% dalolatnoma va hisobvaraqt-faktura imzolanganidan so'ng o'tkazilgan avansni chegirib tashlagan holda yoki oraliq bosqichlar bo'yicha dalolatnomalar va hisobvaraqt-fakturalar bo'yicha 20 bank kuni mobaynida to'lanadi. Har bir oraliq bosqichning qiymati haqidatda bajarilgan ishning tarkibi va hajmi bilan aniqlanadi.
- 2.4. Ishni bajarish muddati, 30% bo'nak to'langandan so'ng 30 ish kunini tashkil qiladi.

**III. ISHNI BAJARISH, ETKAZIB BERISH VA QABUL
QILISH TARTIBI VA MUDDATLARI**

- 3.1. Bajariladigan ishlarning umumiyligi muddati shartnomada ko'rsatilgan muddatlardan oshib ketmasligi lozim. Quyidagi hollarda shartnomada ko'rsatilgan loyihani topshirish muddatlari kechiktirilishi mumkin :
 - Fors – major holatlarda (VI).
 - 3.2. Ish yakunida "Loyihachi-ijrochi" "Buyurtmachi"ga loyihaning to'liq tarkibining uch nusxasini topshiradi.
 - 3.3. "Buyurtmachi" hujjatlarni "Loyihachi-ijrochi"dan qabul qilgandan so'ng 10 kundan kechiktirmay ekspertiza organiga topshirishi shart.
Aks holda tuzatish alohida shartnoma asosida amalga oshiriladi.

IV. TARAFLARNING HUQUQ VA MAJBURIYATLARI

- 4.1. "Loyihachi-ijrochi"ning huquq va majburiyatları:
 - "Buyurtmachi" tomonidan berilgan topshiriq asosida loyiha smeta xujjalalarini sifatli tayyorlaydi.
 - Tayyorlangan loyiha smeta xujjalalarini amaldagi me'yoriy hujjatlarga mos kelishi, narxlarni to'g'ri shakllanishi va belgilangan muddatlarda bajarilishini kafolatlaydi.
 - Loyiha-smeta hujjatlarni va loyiha-qidiruv (iziskaniya) ishlarni bajarish uchun subpudrat tashkilotini jalg qilish huquqiga ega.
 - Ish jarayonida vujudga kelgan ishga taalluqli muammolar bo'yicha o'z vaqtida "Buyurtmachi"ni ogoxlantiradi va yuzaga kelgan muammoni o'zaro kelishgan holda hal etiladi.
 - "Loyihachi-ijrochi" ob'ektni o'z vaqtida ishga tushirish va ishlarni bajarish jadvali bo'yicha o'z majburiyatlarini buzganligi uchun "buyurtmachi"ga muddati o'tkazib yuborilgan har bir kun uchun majburiyatlarining bajarilmagan qismining 0,1 foizi miqdorida penya to'laydi, biroq bunda penyaning umumiyligi summasi ob'ekt shartnomaviy joriy qiymatining 50 foizidan oshmasligi lozim.



4.2. "Buyurtmachi"ning huquq va majburiyatları:

- "Loyihachi-ijrochi" tomonidan tayyorlangan loyiha-smeta xujatlarını belgilangan tartibda qabul qilib olish.

- Tayyorlangan loyiha smeta hujjatlari uchun shartnomada ko'rsatilgan muddatlarda va tartibda to'lovni amalga oshirish.

- "Buyurtmachi" shartnomada ko'rsatilgan muddatlarda va tartibda to'lovni amalga oshirishmasdan o'z majburiyatlarini buzganligi uchun "loyihachi-ijrochi"ga muddati o'tkazib yuborilgan har bir kun uchun majburiyatlarning bajarilmagan qismining 0,1 foizi miqdorida penya to'laydi, biroq bunda penyaning umumiylarini ob'ekt shartnomaviy joriy qiymatining 50 foizidan oshmasligi lozim.

V. ETKAZIB BERISH VA ISHLARNI QABUL QILISH TARTIBI.

5.1. Bajarilgan ishlarni qabul qilish va baholash texnik topshiriqdagagi talablarga muvofiq belgilanadi.

5.2. "Loyihachi-ijrochi" tomonidan bajarilishi va shartnomani bajarish tugagandan so'ng loyihaning ma'lum bosqichlarida "buyurtmachi"ga topshirilishi kerak bo'lgan hujjatlar ro'yxati texnik topshirig'i bilan belgilanadi.

5.3. Hisob-fakturaning yakuniy bosqichi "Loyihachi-ijrochi" tomonidan "Buyurtmachi"ga talab qilingan miqdorda belgilangan hujjatlarni "qabul qilish" dalolatnomasini taqdim etganidan keyin 5 kun ichida rasmiylashtiriladi.

5.4. "Buyurtmachi" mazkur shartnomaning 1.1-bandida ko'rsatilgan loyiha hujjatlarini qabul qilish dalolatnomasini "Loyihachi-ijrochi" taqdim etganidan so'ng 5 kun ichida qabul qilib, imzolashi shart. Agarda e'tirozlar mavjud bo'lsa, darhol bu haqda 5 kun ichida yozma ravishda "Loyihachi-ijrochi" ga ma'lum qiladi.

5.5. "Buyurtmachi" loyihani qabul qilishni asosli ravishda rad etgan taqdirda, tomonlar o'tasida loyiha ishlari shart va 5 kun ichida loyiha ishlarni davom ettirishning maqsadga muvofiqligini ko'rib chiqishlari kerak. Ish to'xtatilgan taqdirda, bajarilgan loyiha ishlari ushbu loyiha uchun taqdim etilgan rentabellik darajasi bilan bog'liq bo'lgan haqiqiy xarajatlar "buyurtmachi" tomonidan to'lanadi.

5.6. Agar loyiha ishlarni bajarish davomida uni keyinchalik amalga oshirishning maqsadga muvofiq emasligi aniqlansa, tomonlar 5 kun ichida bir-birlarini loyiha ishlarni to'xtatilishi to'g'risida xabardor qilishlari shart va 5 kun ichida loyiha ishlarni davom ettirishning maqsadga muvofiqligini ko'rib chiqishlari kerak. Ish to'xtatilgan taqdirda, bajarilgan loyiha ishlari ushbu loyiha uchun taqdim etilgan rentabellik darajasi bilan bog'liq bo'lgan haqiqiy xarajatlar "buyurtmachi" tomonidan to'lanadi.

5.7. O'zaro yakuniy hisob-kitoblarni amalga oshirish uchun tomonlardan birining yozma murojaati ko'rib chiqiladi va shu asosida loyiha ishlari tugatildi deb hisoblansa, yakuniy to'lovlar nihoyasiga etkaziladi.

5.8. Agar ishni bajarish davomida "Buyurtmachi" yoki "Loyihachi-ijrochi" loyiha ishining bir turini boshqasiga almashtirishni zarur deb topsa, bunday almashtirish ushbu loyiha ishi doirasida tomonlar o'tasida yozma kelishuv asosida amalga oshiriladi.

VI. FORS – MAJOR HOLATLARI

6.1. Taraflarning birortasi boshqa tarafning oldida, ushbu shartnoma bo'yicha olgan majburiyatlarini taraflarning erki va istagidan tashqari paydo bo'lgan va ularni oldindan ko'ra bilishi yoki bartaraf etishi mumkin bo'lmagan holatlar (zilzila, suv toshqini, yong'in va boshqa tabiiy ofatlar) sodir bo'lganda javobgar bo'lmaydi.

6.2. O'z majburiyatini bajarmagan taraf shartnoma bo'yicha majburiyatni bajarishga uning ta'sir ko'rsatishi yoki monelik qilishi to'g'risida boshqa tarafga imkon qadar tezda xabar berish lozim.

6.3. Agar bartaraf qilib bo'lmaydigan kuchlar 15 kun ichida muntazam ta'sir etayotgan bo'lsa va tugash belgilari aniqlanmasa bir taraf ikkinchi tarafga yozma xabar berish yo'li bilan shartnomani bekor qilishni talab qilishi mumkin.

6.4. Bartaraf qilib bo'lmaydigan kuchlarning mavjudligi yoki amalda davom etayotganligi O'zbekiston Respublikasi hukumatining qarorlari yoki boshqa vakolatli organlar tomonidan belgilanadi.

VII. SHARTNOMANI O'ZGARTIRISH YOKI BEKOR QILISH SHARTLARI

7.1. Ushbu shartnoma taraflarning yozma roziliqi asosida o'zgartirilishi va qo'shimchalar kiritilishi mumkin.

7.2. Quyidagi hollarda shartnoma taraflarning tashabbusi bilan bekor qilinishi mumkin:

- Respublika hukumati qaroriga ko'ra.

- Vakolatli organlar qaroriga ko'ra.

- Fors – major holatlar tufayli.



VIII. NIZOLARNI HAL QILISH TARTIBI.

8.1. Tomonlardan biri shartnoma majburiyatlarini bajarmagan yoki lozim darajada bajarmagan taqdirda, aybdor tomon O'zbekiston Respublikasining fuqarolik kodeksi, "xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatining shartnomaviy huquqiy bazasi to'g'risida"gi hamda "tadbirkorlik sub'ektlarining huquqiy asoslari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonuni va boshqa qonun hujjatlari hamda ushbu shartnomada belgilangan tartibda javobgar bo'ladi.

8.2. Tomonlar o'rtasida kelib chiqadigan kelishmovchiliklar va nizolar o'zaro muzokara o'tkazish yo'lli bilan hal etiladi. Agar kelishmovchiliklarni yoki nizolarni muzokara o'tkazish yo'lli bilan hal etilmasa, kelishmovchiliklar va nizolar amaldagi Qonunchilik talabiga ko'ra taalluqliligi bo'yicha iqtisodiy sud tomonidan ko'rib chiqib hal etiladi. Bunda oldin taraflar o'zaro kelishuvga erishmasalar.

XI. SHARTNOMANING QO'SHIMCHA SHARTLARI

9.1. Pudratchi tashkilotlar tomonidan bajarilgan ishlar uchun to'lovlari, Moliya vazirligi tomonidan pul ajratilishiha qarab amalga oshiriladi.

9.2. Ushbu shartnoma taraflar tomonidan imzolanib, G'aznachilik hududiy boshqarmasi tomonidan ro'yxatga olingandan so'ng qonuniy kuchga kiradi va 2022 yil 31 dekabr kuniga qadar amal qiladi.

TARAFLARNING MANZILI VA TULOV REKVIZITLARI

"Loyihachi-ijrochi"

"DAVR PROEKT" MChJ

Manzil: Jizzax sh., A.Navoiy ko'chasi 12 uy.
Tel/faks: +99899 357 43 21
x/r: 2020 8000 4006 2360 5001
ATB Mikrokreditbank Jizzax mintaqaviy filiali
MFO: 00135 **INN:** 303 995 438
OKONX: 66000 OKED 71120

"Buyurtmachi":

«Sirdaryo suv qurilish invest» DM

Guliston shahri
Homdamir ko'chasi, 127
Tel. (67) 225-11-30, faks 225-13-42
Shxr: 100010860244017049801120089
INN: 200322986 **OKED:** 70210
H/r. 23402000300100001010
Markaziy bankning Toshkentdag'i hisob-kitob
va kassa markazi
MFO: 00014 **INN:** 201122919
Ro'yhatdan o'tish kodи QQS _____

Direktor:



Direktor:



Loyihet: A. Abayev
A. Abayev



**LOYIHA ISHLARINI BAJARILISHI UCHUN
SHARTNOMA NARXINI KELISHUV
BAYONI**

“Мирзаобод туманидаги “Д-3-20а” ирригация тизими каналини реконструкция қилиш обектнинг атроф мухитга таъсир баёноти лойихасини ишлаб чиқиш”

«25» iyul 2022 yil № 28/22 sonli shartnomaga

Biz quyida imzo quyuvchilar, “Buyurtmachi” «Sirdaryo suv qurilish invest» DM direktori D.Islamov va “Loyihachi-ijrochi” “DAVR PROEKT” MChJ direktori R.Xojiev tasdiqlaymizki, loyiha-qidiruv ishlarini bajarish uchun shartnoma qiymatini haqida tomonlar o'zaro kelishishiga erishilgan.

Shartnomaning umumiy qiymati 5 659 000 (besh million olti yuz ellik toqqiz ming) so'mni QQS bilan tashkil qiladi.

Ushbu qaror byurtmachi va bajaruvchi o'tasida o'zaro hisobot va to'lovlarni amalga oshirish uchun asosdir. (asos sifatida xizmat qiladi).

"Loyihachi-ijrochi":

“DAVR PROEKT” MChJ

Xojiev
(imzo, f.i.sh.)
« 28 » 07.07 2022y.



"Buyurtmachi":

«Sirdaryo suv qurilish invest» DM

D.Islamov
(imzo, f.i.sh.)
« — » — 2022y.







**Кыргызстандын жардамшаштырылган манбазар хисобы амкада оптикалыктан
түркменистандын мұассасасын буюртулған күрши, ресон**

卷之三



